



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-aprel

100-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi PF-70-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash haqida

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq 2030-yilgacha nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish va davlat ishtirokidagi korxonalarni 6 baravarga qisqartirish bo‘yicha vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi PF-70-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan quyidagilar:

a) iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor ulushini oshirish maqsadida 2030-yil 1-yanvarga qadar davlat ishtirokidagi korxonalarni (mudofaa va xavfsizlik bilan bog‘liq, korxonalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) tashkil etishga moratoriy joriy qilinganligi;

b) quyidagilar:

Ommaviy savdolariga chiqariladigan aksiya paketlari (ulushlar) ro‘yxati;

Ommaviy savdolariga chiqariladigan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko‘chmas mulk obyektlari ro‘yxati;

Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini tashkil etish uchun 2025-yilda ustuvor ravishda mulk huquqi asosida yer uchastkalarini elektron onlayn auksion savdolariga chiqarish rejasi;

2025-yilda foydali qazilmalarni qazib olish uchun foydalanish huquqi elektron onlayn auksion savdolariga chiqariladigan asosiy turdagi foydali qazilma kon va uchastkalari ro‘yxati;

Vazirlik va idoralar, davlat ishtirokidagi yirik korxonalarda xususiylashtirish va davlat-xususiy sheriklik masalalariga mas'ul o'rinbosarlarning asosiy vazifalari;

Davlat mulkini boshqarish sohasida qonun hujjatlarini takomillashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R. Sulaymonov), Davlat aktivlari boshqarish boshqarmasi (N. Atajanov), hududiy davlat organlari va tashkilotlari, tuman (shahar) hokimliklari:

a) bir oy muddatda mazkur Farmonga muvofiq savdoga chiqarilishi belgilangan aktivlarni Davlat aktivlari agentligiga o'tkazib berish masalasini o'zlari aksiyador (ishtirokchi, muassis) bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqaruv organlari yig'ilishlarida ko'rib chiqib, o'tkazib berilishi;

davlat ishtirokidagi korxonalar bilan birgalikda xususiylashtirilishi belgilangan davlat aktivlarining ular sotilgunga qadar butligini ta'minlash va begonalashtirmaslikka (sotish, sotiladigan ulush miqdorini kamaytirish, garovga qo'yish, buzish va boshqalar) shaxsiy javobgar va mas'ul hisoblanishi to'g'risidagi belgilangan tartibga qat'iy amal qilinishini ta'minlasin;

b) davlat korxonalari va muassasalarini tugatishda ularning majburiyatlarini tegishliligicha o'zlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari va mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan qoplanishini;

davlat ishtirokidagi korxonalarda xarajatlar, shu jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar tasdiqlangan biznes-reja ko'rsatkichlariga qat'i rioya qilgan holda amalga oshirilishiga ularning birinchi rahbarlari shaxsan javobgarligi belgilanishini ta'minlasin.

4. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R. Sulaymonov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (A. Niyazov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (D. Nishonov), Davlat aktivlari boshqarish boshqarmasi (N. Atajanov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga 3-ilovadagi rejaga muvofiq yer uchastkalarining ustuvor ravishda mulk huquqi asosida elektron onlayn auksion savdolariga 2025-yilda chiqarilishini ta'minlash choralari ko'rsin. Bunda shaharsozlik hujjatlari ishlab chiqilmagan yer uchastkalarini ijara huquqi asosida savdoga chiqarishni davom ettirsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul etib viloyat hokimining birinchi o'rinbosari R. Sulaymonov hamda Davlat aktivlarini boshqarish boshqarmasi boshlig'i N. Atajanov belgilansin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari R. Sulaymonov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov